



ANDIJONDAGI ME'MORIY OBIDALAR VA QADAMJOLAR BIZNI TARIXIMIZNI KELAJAGIMIZ BILAN BOG'LAB TURUVCHI DASTURI AMALDUR

**Valiyev Elyorbek Saidaxror o'gli.
Andijon Davlat Pedagogika Insituti.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Andijon viloyati tarixi va madaniyati haqida so'z boradi. Ushbu maqola orqali Andijon viloyatining boy tarixi haqidagi manbalarni bilib olishingiz mumkin. Ushbu maqola Andijonni madaniyat va an'analari haqida qiziqishingiz ortadi.

Kalit so'zlar: arxeologiya, toponimika, geografiya, paleografiya, etnografiya.

Andijon arxeologik o'rganish o'rta asrni 50 yillarida boshlanadi. Andijonning ilk tanga pullar X asrga to'g'ri keladi, ular 968-970 yillari zarb etilgan. Mo'g'illar o'rta asrda bostirib kirganidan so'ng xam Andijon Movounnaxrdagi yirik shaxarlardan biri bo'lib qolaveradi. Tibbiyot insitutini akademik litseyi xovlisidagi 2008 yildagi arxeologik qazishmalar payitida XI – XII asrlarga oid tanga pullari aniqlandi. Samarqand O'zgad va Xorazimshoxlar tomonidan zarb etilgan tangalar Andijonning savdo aloqalari ko'lamini ko'rsatadi. Muin ad -Din Natanzining "Iskandar anonimi " asarida keltirishicha. Mo'g'illar ko'pgina katta shaxarlarni, jumladan, 'qu bot-ul Islomi Andijon'ni har tomonlama rivojlantirdi va u Farg'onaning poytaxtiga aylandi. Andijon, Marg'ilon, O'sh, Xo'jand singari shaxarlarda XIV asrning 2- yarimida kumushdan tanga pullar zarb etilgan. Bu gurux tangalar chig'atoylar puli deb yurutilganini aniqladi. T.Keldiyev ko'chasidagi chordona yodigorligining yuqori qatlamlaridagi o'rta asrlarga oid qabirlarni birida topilgan. 1377-yili Mo'g'illar xukumronligi barham topgach, Andijon tarixidagi yangi bosqich Temuriylar saltanati davri boshlandi. Amir Temur Andijon va O'zganni uy ikki tumani bilan o'g'li Umarshayga berdi, bu vaqtda shaxar hokim qarargoxi edi. Abd ar –Razzoq Samarqandiyning yozishicha 1377-1378 milodiy yili amirzoda Umarshayx Andugonda mudofa devorini bunyot etadi.

Arxeologlarni aytishicha Qorahonilar davri madamiy qatlamlari ostiga bunot etilgan. "Tarixi Rashiddinnig muallifi Mirzo Xaydar " "Farg'ona davlatining hukumdorlari Abu Said va unig o'g'li Umarshayx Mirzo nabiralari Boburshox va Jahongir Mirzolar o'g'illaridagi poytaxt shahar Andijondur. Andijon viloyati – buyuk Boburning vatani, O'zbekistonning maydoni bo'yicha eng kichik, lekin aholisi ko'pligi bo'yicha eng katta viloyatidir. Mintaqaning tarixi miloddan



avvalgi VI asrda paydo bo'lgan qadimgi Dovon davlatidan boshlanishini ko'pchilik bilmasa kerak. O'sha vaqtlardan bu yerda sun'iy sug'orish, chorvachilik bilan qishloq xo'jaligi rivojlantirdi, bundan tashqari, ushbu mintaqa "samoviyotlar" yashash joyi bo'lgan. Andijon viloyatida 400 dan ortiq sayyohlik obyekti mavjud – bu muzey va istirohat bog'lari, arxeologik va tarixiy obidalar, barcha turistlar uchun, ziyoratgohlar, shuningdek, ajoyib iqlimi go'zal dam olish maskanlari. Siz Andijon viloyatini yangicha nazar bilan ko'rishingiz uchun mana shu joylarga tashrif buyurishingizni maslahat beramiz: qadimiy istehkomlar tarixi, qadimiy me'morchilik obidalari, qadimiy uslubda ishlangan mehmonxonalar va tarixiy madaniyat va urf-odatlar va mahalliy hunarmandlarning go'zal ko'za idishlarini qo'l bilan ushlab ko'rishingiz mumkin. Hozirgi kunda davlar tasarufiga o'tgan memoriy qadamjolar davlat himoyasi ostiga olingan.

(1874-1943) – o'sha vaqtda Andijonning katta masjidida katta mudarris Andijon viloyatidagi bu yagona islomiy ma'naviy-ma'rifiy muassasa, Oltinko'l tumanining Jalabek qishlog'ida joylashgan. Farg'ona vodiysidagi eng katta madrasalardan biri 1992 - yilda, Sayyid Muxiyiddin Maxdum bo'lib xizmat qilgan taniqli andijonlik ma'rifatparvar sharafiga barpo etilgan. 1925 - yilda hurmatli domla Sayyid Muhiddin Maxdum, Xitoy g'arbida joylashgan sharqiy Turkistondagi Qashqar tumanida diniy arbob unvoniga sazovor bo'ldi. Butun hayotini islom ilmiga bag'ishlagan olim 63 yoshida Andijon viloyatida vafot etdi. Yaratilishidan beri, bino 18 xonadan iborat tugallanmagan xonalardan iborat edi. 1996 - yilda bino mahalliy aholi kuchi bilan ta'mirlangan bu 2 qavatli bino, 13 o'quv xonasi, 13 mahalliy yotoqxonadan iborat edi.

Andijon viloyatining qo'shni Qirg'iziston bilan chegaradosh bo'lgan eng chekka sharqiy-janubiy hududida joylashgan Fozilmon ota ziyorat gohidagi buloqning suvi "tiriksuv" deb hisoblanadi va undan necha asrlar davomida ko'plab odamlar shifo topib keladi. XIII asrda yashab o'tgan diniy ulamo Sayid Fozilmon Dehlaviy nomi bilan bog'liq bo'lib, olamdan o'tgach shu joyda dafn qilingan. XVI asr oxirida kelgan kuchli sel natijasida Fozilmon ota maqbarasi loyqa ostida qoladi. 1805-yilda tasaruf ilmining yirik vakili, shoir Xo'janazar G'oyibnazar o'g'li Huvaydoning o'g'li Xolmuhammad Eshon ibn Xuvaydo tomonidan qabr o'rni aniqlanib, maqbara qayta tiklanadi. Xo'ja Abdulloh Tug'dor maqbarasi (mahalliy aholi orasida "Pistamozor" deb yuritiladi) VII asrda Qoraxoniylar podshohligi davrida 70 yil mobaynida O'zgan shahri poytaxti hisoblangan. Berilgan manbalarda

yozilishicha, Xo'ja Abdulloh Tug'dor o'sha davrda yashagan ulug' zot Qilich Buxoriddin Said avlodidan bo'lib, payg'ambarlar avlodiga borib taqaladi. Z.M. Boburning piri ham o'sha avlodidan bo'lgan degan ma'lumotlar ham bor. Qo'qon xonligi tashkil topgach, atrofdagi shahar va qishloqlarga o'sha ulug' zotlarning avlodlaridan yuborilgan. Xo'ja Abdulloh bugungi Asaka hududiga kelib o'rnatilib, aholiga ilm-ma'rifat tarqatgan. Tahminan 1840-yilda vafot etgan va bugungi tumandagi "Pistamozor" deb atalgan joyiga dafn qilingan.

Andijon viloyatidagi Jalaquduq tumanidagi "Qilichmazor" mahallasida bir tabarruk maskan bo'lib, u Qutayba ibn Muslim nomi bilan uzviy bog'liqdir. Bu joy bilan bog'liq ko'plab afsonalar xalq orasida avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Ming yillar muqaddam bu hududdan arab qo'mondoni o'tgan bo'lib, Qutayba ibn Muslim tegib o'tgan qadimgi daraxt o'smoqda deya ishonishadi. Afsonaga ko'ra, qadimiy qarag'ayning tanasidan tomayotgan sharbat odamga kuch-quvvat va sog'liq baxsh etadi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Qutayba ibn Muslim ibn Umar ibn Husayn ibn Robiya ibn Xolid ibn Usayd al-Hayd 661-yilda hozirgi Iroq davlati qadimgi Shomda Boksili hududida tug'ilgan. U eng qadimiy arab qabilasining Bahiliy qavmidan bo'lgan. Taniqli arab lashkarboshisi, tashkilotchilik qobiliyati va jangovar mahorati tufayli 704-yilda Xurosonga hokim etib tayinlanadi. Aynan Qutayba arablarning O'rta Osiyo, so'ngra Movarounnahrda bostirib kirgan yurishlarining asosiy tashkilotchilaridan biri sanaladi. Xalifalik hududi bilan yangi

bo'ysunmagan yerlar orasidagi yerlarni uzoq vaqt ajratib turgan Amudaryodan o'tib, Qutayba qo'shinlari 708-yilda Keshni, 709-yilda Buxoroni, 712-yilda Xorazva Samarqandni, 713-yilda Choshni (Toshkent) egalladi. 714-yilda uning qo'shinlari Farg'ona vodiysini egalladi. Qutayba ibn Muslim Bohiliy 715-yilda yangi saylangan xalifa Sulaymonga itoat etishdan bosh tortgan isyonchilar tomonidan o'ldirilgan. Uning qabri joylashgan qabriston tarixchi Narshaxiy tomonidan "Mozorbuva" nomi bilan tilga olinadi.

Andijon viloyatining eng qadimiy me'morchilik yodgorliklaridan biri, Temir asri tegishli bo'lgan, Sarbon-Tepa Andijon shahri markazining shimoliy-g'arbiy qismida Tutzor va Sujat ko'chalari kesishmasida joylashgan. Qadimgi manzilning dastlabki qazish ishlari XX asrning 60-70-yillarida amalga oshirildi. O'sha eramizdan avvalgi V-VIII asrlarga oid dastlabki madaniy qatlamlar topildi. Arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, Sarbon-Tepa maydoni, maydon bo'yicha taxminan 1 gektarni tashkil etgan. Yodgorlik, temir davri boshlanishi oid (miloddan avvalgi 6-4 asrlar) bo'lib Eylaton madaniy markazining bir qismi hisoblanadi. Sarbon-Tepa

majmuasini o'rganish, Farg'ona vodiysi tarixini o'rganishda juda muhimdir. Hozirda, qadimiy arxeologik yodgorlik hududi, devor bilan o'ralgan va Andijon viloyatining qadimiy tarixi bilan bog'liq bo'lgan alohida muhofaza qilinadigan hududlar ro'yxatiga kiritilgan.

Xonaqo masjidi, islom me'morchiligining yodgorligi bo'lib, uning tarixi 15-16 - asrlarga, aniqrog'i, 1560 - yilga taqaladi. Xonaqo masjidi Jalabek tumanida, Andijon shahri markazidan 5 km uzoqlikda joylashgan. Bino, bezatilgan gumbaz, xonaqoh, yopiq va ochiq ayvon va minoradan iborat. Masjidning yuzi sharqqa, eski guzarda qarab qurilgan. Masjidning chap tarafida eski qabriston joylashgan bo'lib uning ichida 15-16 metrlik naqshli minora joylashgan, u masjidning asosiy eshigi bilan yonma-yon turibdi. Masjidning ichki hovlisi 16-17 - asrlarga oid bezakli gullar va qizg'aldoq naqshlari bilan bezatilgan ikki qavatli hujralardan iborat, yoz oylarida esa masjidga tashrif buyuruvchilar kichik hovuzdan salqinlikdan bahramand bo'lishlari mumkin. Ichki ayvonlar, to'rtburchakli xona va uchta yon qator ustunlardan iborat. Masjid ustunlarining poydevori sakkiz qirrali,

chiroyli o'ymakorlik va bezak naqshlari va mozaikalar bilan bezatilgan. Masjidning yuzi sharqqa, eski guzarda qarab qurilgan. Masjidning chap tarafida eski qabriston joylashgan bo'lib uning ichida 15-16 metrlik naqshli minora joylashgan, u masjidning asosiy eshigi bilan yonma-yon turibdi. Masjidning ichki hovlisi 16-17 - asrlarga oid bezakli gullar va qizg'aldoq naqshlari bilan bezatilgan ikki qavatli hujralardan iborat, yoz oylarida esa masjidga tashrif buyuruvchilar kichik hovuzdan salqinlikdan bahramand bo'lishlari mumkin. Ichki ayvonlar, to'rtburchakli xona va uchta yon qator ustunlardan iborat. Masjid ustunlarining poydevori sakkiz qirrali, chiroyli o'ymakorlik va bezak naqshlari va mozaikalar bilan bezatilgan.

Andijon shahridagi Dukchi Eshon mahallasi danoyob inshoot – qadimgi Qal'a joylashgan. Ushbu majmua 1880-1881 yillarda Andijon shahrida chor Rossiya qo'shinlari uchun mudofa qal'asi sifatida qurilgan. Qal'a devorlarining balandligi 10 metrdan oshadi, shuning uchun Andijonning har bir tumani va ko'chasi aniq ko'rinib turardi. Qal'aning ichida askarlar uchun kazarmalar, qurol-aslahalar, oshxona va artilleriya bazasi bo'lgan mudofa inshooti joylashgan edi. O'sha davrda qal'aga Rus podshohining Turkiston batalyonining 250 dan ortiq harbiy rotasi joylashishi mumkin edi. Andijondagi bunda tarixiy obidalar nafaqat andijonning balkim O'zbekistonning ham tarixiy qadamjolari hisoblanadi va hozirgi kunda ham saqlanib qolgan.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ferghana valley.
2. O‘zME; Birinchi jild
3. <https://uzbekistan.travel/uz/o/qutayba-ibn-muslim-maqbarasi/>O‘zbekiston me‘moriy obidalari.
4. Axmedov . M. O‘rta osiyo me‘morchiligi.
5. Toshkent 2000-yil
6. 1-qism. Me‘morchilik tarixi.
7. Wikipedia. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>